QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASI ELLIKQALA RAYONÍ HÁKIMINIŃ SH E SH I M I

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI ELLIKQAL’A TUMANI HOKIMINING Q A R O R I

2024-yil 28-oktabr | 188-13-194-Q/24 | Ellikqal’a tuman hokimligi

Tumanda 2025-yil uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabr kungi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi 642-sonli Qonunining 39-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumanda 2025-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi qonunning 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limining 2024-yil 26-avgust kungi 13/16-01/01-473-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabr kungi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi 642-sonli Qonunining 39-moddasiga muvofiq ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumandagi korxonalar, tashkilotlar, idoralar uchun ishchilarning ro‘yxati bo’yicha o’rtacha sonidan 77 odamdan iborat 3,0 foiz miqdorda shu hisobdan:

a) o‘n to‘rt yoshgacha va nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz ota, yolg‘iz onalar va ko‘p bolali oilalar uchun 39,0 foiz 30 nafar;

b) umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 44,1 foiz 34 nafar;

v) safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 5,2 foiz 4 nafar;

g) nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 3,9 foiz 3 nafar;

d) pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 1,3 foiz 1 nafar;

e) jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 2,6 foiz 2 nafar;

f) oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun 3,9 foiz 3 nafar;

3. Band qilinishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlari sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni belgilash uchun maxsus komissiya 1-ilovaga muvofiq, 2025-yil 1-yanvardan boshlab ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan fuqarolar uchun korxona va tashkilotlarda ishlovchilarga nisbatan belgilangan ishchi o‘rinlar tashkil qilish to‘g′risidagi reja 2- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxona va tashkilotlar rahbarlariga ijtimoiy muhofazaga muhtoj hamda ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2024-yil yakunlanishidan 10 kun oldin kvota ish o‘rinlari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2025-yilning 10-aprelidan kechiktirmasdan ish o‘rinlarining qolgan qismi 75 foizini tashkil qilish (ajratish yoki band qilib qo‘yish) haqidagi, ya′ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlarini band qilish kasb va lavozimlari, mutaxassislar kesimidagi ma′lumotlarni va qaror asosida chiqarilgan buyruq nusxalarni tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga topshirish vazifalari yuklatilsin.

5. Korxona, muassasa va idoralar rahbarlariga ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar ish o‘rinlarining ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabr kungi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g′risida” gi Nizomga muvofiq belgilangan muddatda va tartib bilan yaratilishini (ajratilishini yoki band qilib qo‘yilishini) hamda ish o‘rinlarini sanitariya gigiyena qoidalariga va ishchilar o‘z vazifalarini qiyinchiliklarsiz bajarishini ta′minlaydigan mehnat shartnomalariga muvofiq bo‘lishini ta′minlasinlar.

6. Ushbu qarorni bajarmagan tashkilot va korxonalarning mansabdor shaxslariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g′risida”gi Nizomning 21- bandiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

7. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida” gi buyrug‘iga asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olib, “Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga - har bir xodim uchun bir yil davomida oyiga bazaviy hisoblashning 2 baravari miqdorida haq to‘lash” to‘g‘risidagi Nizomga asosan subsidiya ajratilishini ta′minlansin.

8. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (R.Matsapayev) ushbu qarorni tegishli korxona va tashkilot rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishini nazorat qilishni ta′minlasin.

9. Ellikqal’a tuman hokimining 2023-yil 26-oktabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2024-yil uchun band qilish to‘g‘risida”gi 144-13-194-Q/23-sonli qarori 2024-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Alimov zimmasiga yuklatilsin.

Ellikqal’a tumani hokimi **V.Niyazimbetov**

Ellikqal’a tuman hokimining
2024-yil 28-oktabrdagi
188-13-194-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish uchun maxsus komissiya tarkibi

T/r	F.I.Sh	-	Lavozimi
1	B.Alimov	-	Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, *komissiya raisi*
2	Sh.Qo‘shnazarov	-	O‘zbeksiton mahallalari uyushmasi Ellikqal’a tumani bo‘limi boshlig‘i, *komissiya raisi o’rinbosari*
3	R.Matsapayev	-	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i v.v.b, *komissiya kotibi*
4	Q.Uzaqbayev	-	Tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i
5	B.Alimov	-	“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi direktori
6	X.Durdiyev	-	Tuman tibbiyot birlashmasi bosh shifokori
7	A.Xudayberganov	-	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i
8	M.Doschanov	-	Tuman hokimligi qoshidagi ijtimoiy ko‘nikma markazi rahbari
9	A.Ikramov	-	Budjetdan tashqari pensiya jamg’armasi boshlig‘i
10	N.Xadjiyev	-	Ellikqal’a tumani Davlat xizmatlari markazi direktori

Ellikqal’a tuman hokimining
2024-yil 28-oktabrdagi
188-13-194-Q/24-son qaroriga
2-ilova

2025-yil 1-yanvardan boshlab ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan fuqarolar uchun korxona va tashkilotlarda ishlovchilarga nisbatan belgilangan ishchi o‘rinlar tashkil qilish to‘g'risida

REJA

T/R	Korxona va tashkilotlar nomi	Korxona INN raqami	Kvota ish o‘rinlarini yaratadigan korxonalarda ishlovchilar soni	Kelgusi yilga zahirага qo‘yish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	O‘n to‘rt yoshgacha va nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz ota, yolg‘iz onalar va ko‘p bolali oilalar uchun	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun	Safarbarlik chaqiriq zahirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar safarlaridan muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun ish o‘rinlar soni	Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlar soni	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun	Odam savdosidan jabrlanganlar uchun	Atrofdagilar uchun xavf tug’dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun	Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun

1	Ellikqal’ a tuman tibbiyot birlashm asi	200914296	1427	38	13	18	2	1	1	1			2

2	Ellikqal' a tumani 2-sonli sport maktabi	309348793	40	2	1		1						
3	Ellikqal'a Yo'llarda n muntaza m foydalani sh unitar korxonas i	200400501	69	2	1			1					
4	Ellikkal' a davlat o'rmon xo'jaligi	200401294	49	2	1		1						
5	23-son1i bolalar musiqa va san'at maktabi	207310577	50	2		1							1
6	Ellikqal' a tumani irrigatsiy a bo'limi	207262732	63	2				1		1			

7	2-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206897211	61	2	1	1							
8	3-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206897228	67	2	1	1							
9	5-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206897243	61	2	1	1							
10	7-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206897267	59	2	1	1							
11	21-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206896774	46	2	1	1							
12	26-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206897188	51	1	1								
13	40-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206897117	42	2	1	1							

14	47-son umumiy o‘rta ta′lim	206896925	48	2	1	1							

	maktabi												
15	49-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206896933	38	1		1							
16	52-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206897053	54	1	1								
17	53-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206896649	35	1		1							
18	54-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206897045	48	1	1								
19	66-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	207262431	54	1	1								
20	69-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206896624	40	1		1							

21	71-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	206896656	27	1	1								
22	10-son maktabg acha ta'lim tashkilot i	207058984	21	1		1							
23	12-son maktabg acha ta'lim tashkilot i	207059058	23	1	1								
24	15-son maktabg acha ta'lim tashkilot i	207052194	34	1		1							
25	18-son maktabg acha ta'lim tashkilot i	207059073	26	1		1							
26	20-son maktabg acha ta'lim tashkilot	207059034	31	1		1							

	i												
27	25-son maktabgacha ta'lim tashkilot i	207274804	31	1	1								
28	33-son maktabgacha ta'lim tashkilot i	309961619	21	1		1							
Жами		**x**	**2616**	**77**	**30**	**34**	**4**	**3**	**1**	**2**	**0**	**0**	**3**